HUQUQIY TA'LIMDA TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO TENDENSIYALAR

Xushnazar Jo'rayev
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Huquq va texnologiyalar sho'basi o'qituvchisi,
Elektron pochta: juraevkhushnazar@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21196437

Bugungi kunda raqamli transformatsiya global miqyosda barcha sohalarga kirib bormoqda. Tibbiyot, moliya, ta'lim — bularning barchasida texnologiya endilikda muhim vositadan zaruriy shart-sharoitga aylanishga ulgurdi. Bu o'zgarishlar huquq sohasida ham allaqachon ro'y berib boshlagan. Yuridik kasb va ta'lim jarayonlariga sun'iy intellekt va Legal Tech vositalari kirib kelishi nafaqat amaliyotchilarning ishini o'zgartirmoqda, balki huquqiy ta'limning yo'nalishini qayta belgilamoqda. O'zbekiston uchun esa bu jarayon alohida ahamiyat kasb etadi: mamlakatda 39 million aholi va 1 million 208 mingdan ortiq ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari[1] mavjud bo'lgan holda, atigi 7205 lisenziyalangan advokat faoliyat ko'rsatmoqda[2]. Bu raqam o'z-o'zidan texnologik yechimlarning naqadar zarurligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Huquqiy ta'limdagi texnologik inqilobni to'liq tushunish uchun avvalo bu o'zgarishlarning global miqyosida qanday tezlik bilan sodir bo'layotganiga e'tibor qaratish lozim. Xususan, Thomson Reuters kompaniyasining 2024-yilgi "Kasblar kelajagi" hisobotiga ko'ra, huquqshunos ish kunining hujjatlarni shakllantirish va kunlik vazifalarga sarflangan qismi sun'iy intellekt orqali haftasiga 12 soatga (yillik 624 soat)ga qisqartirilishi mumkin[3]. Bu raqam bir yil ichida taxminan uch oylik to'liq ish vaqtiga to'g'ri keladi. Bundan ham ajablanarlisi 20 nafar yuristdan iborat o'rtacha firmada ushbu vaqt yiliga 6 million AQSh dollarigacha daromad keltirishi prognoz qilinmoqda. AQSh Advokatlar Assotsiatsiyasi (ABA) tomonidan 2025-yilda o'tkazilgan so'rovda 2 800 dan ortiq yuridik mutaxassislar qatnashgan bo'lib, respondentlarning 53 foizi sun'iy intellektni joriy etgan firmalar unumdorlikning sezilarli o'sishini kutayotganini ma'lum qilgan. Clio kompaniyasining 2025-yilgi "Huquqiy tendensiyalar" hisobotiga ko'ra, barcha yuridik mutaxassislarning 79 foizi endi SI vositalaridan foydalanmoqda.

Yevropa bozori ham bu tendensiyadan chetda qolmagan. Grand View Research tahlillariga ko'ra, Yevropaning Legal Tech bozori 2026–2033 yillar davomida yillik 12,2 foizlik o'sish sur'atida rivojlanishini davom ettirishi kutilmoqda[4]. Ayniqsa, 2024-yilning avgust oyida kuchga kirgan Yevropa Ittifoqining Sun'iy Intellekt to'g'risidagi qonuni (EU AI Act) huquqiy firmalarni rasmiy SI boshqaruv tizimlarini o'rnatishiga olib keldi va bu o'z navbatida Legal tech sohasiga yangi talab va investitsiyalar oqimi kela boshladi. Buyuk Britaniyaning Huquqshunoslar jamiyati ma'lumotlariga ko'ra, biznes rahbarlarining 31 foizi kelgusi 5 yil ichida huquqiy sektorda SI qo'llanilishining sezilarli darajada o'sishini kutmoqda. Yuqoridagi statistikalarni umumlashtirib aytganda, global miqyosda barcha SI qo'llagan yuristlarning 95 foizi haftalik ish vaqtida tejashga erishganini bildirishgan, atigi 6 foiz (oldingi yilda 16 foiz edi) hech qanday unumdorlikni sezmagan.

O'zbekiston startup bozorida ham ushbu yo'nalishda yangiliklar bo'lmoqda. Mamlakatda huquqiy texnologiyalar sohasidagi eng yirik mahalliy loyihalar — Tuzuk AI va

[1] https://www.uzdaily.uz/uz/kichik-biznes-ozbekiston-yaimining-456ini-shakllantirdi/
[2] https://back.minjust.uz/media/document/87b84bbc-5d05-4f91-8572-630137a3d111/tush_xati_4kv_2025.pdf
[3] https://www.thomsonreuters.com/content/dam/ewp-m/documents/thomsonreuters/en/pdf/reports/future-of-professionals-report-2024.pdf
[4] https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/legal-technology-market-report

Wakil AI platformalari hisoblanadi. Xususan, Tuzuk AI platformasi 2024-yil noyabrida ishlab chiqilishi boshlangan va 2025-yilning mart oyida to‘laqonli foydalanishga topshirilgan[5]. Bu platforma O‘zbekiston qonunchiligi bilan ishlash uchun maxsus yaratilgan sun’iy intellekt yordamchisi bo‘lib, uning asosiy imkoniyatlari bir nechta yo‘nalishni qamrab oladi. *Birinchidan,* SI asosida huquqiy qidiruv tizimi: platforma kontekstni hisobga olgan holda tuzilgan huquqiy javoblarni qisqa vaqtda taqdim etadi, ya’ni foydalanuvchi oddiy savol yo‘nalishida murojaat qilsa ham tizim O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonun va normativ-huquqiy hujjatlarini to‘g‘ri va tasdiqlovchi havolalar shaklida ko‘rsatadi. *Ikkinchidan,* avtomatlashtirilgan shartnoma tuzish: oldindan belgilangan yuridik shablonlar va eng yaxshi amaliyotlar asosida shartnomalar loyihalarini tayyorlaydi. *Uchinchidan,* hujjatlarni huquqiy tahlil qilish: mantiqsiz qoidalar yoki yuridik xatolarni aniqlaydi hamda hujjatning O‘zbekiston qonunchiligi talablariga mosligini tekshiradi. *To‘rtinchidan,* sud qarorlarini tahlil qilish moduli — amaliyotchilar tomonidan alohida ta’kidlangan bu funksiya huquqshunosga ko‘p sonli sud pretsedentlarini qo‘lda o‘rganish o‘rniga tezda tegishli analitikani olish imkonini beradi. *Beshinchidan,* platforma o‘zbek, rus va ingliz tillarida xizmat ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa, xorijiy investorlar bilan ishlayotgan yuristlar uchun muhim.

Tuzuk AI platformasidan foydalanayotgan amaliyotchi advokatlarning sharhlari ushbu Legal Tech vositasining real ish sharoitidagi samaradorligini yanada aniqroq tasvirlab bergan. Masalan, fuqarolik ishlarida ishlaydigan advokat quyidagicha izoh qoldirgan: *“Tuzuk.ai platformasini ishga tushirilganidan beri fuqarolik ishlari va protsessual hujjatlar tayyorlashda faol foydalanmoqdaman. Tizim hech qachon “gallyutsinatsiya” yoki jiddiy huquqiy xatoliklar qilmagan — O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga barcha havolalar aniq va tekshirilgan bo‘ladi”* deb qayd etgan. Boshqa foydalanuvchilar platformaning kerakli qonunlar va kodekslarga tezkor kirishni ta’minlashi, hujjat shablonlarini yaratishi va sud qarorlarini tahlil qilish orqali ishni sezilarli darajada osonlashtirayotganini alohida ta’kidlashgan.

Tuzuk AI yagona mahalliy tashabbusdan iborat emas. O‘zbekiston huquqiy texnologiyalar maydonida yana bir muhim o‘yinchi — Wakil AI. Mazkur platformadan O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni joriy etish doirasida, xususan, “Madad” NNT (nodavlat notijorat tashkiloti) va adliya organlarining huquqiy portallarida maslahatchilar xizmati hamda bepul huquqiy yordam sifatini oshirish uchun foydalanilmoqda. Ushbu tizimda muayyan huquqiy vaziyat yoki sud ishlarining kuchli va zaif tomonlarini, risklarini hamda suddagi muvaffaqiyat ehtimolini sun’iy intellekt yordamida tahlil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustda qabul qilingan “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-140-son farmonda nazarda tutilgan sudga ariza berishdan oldin sun’iy intellekt yordamida sud muhokamasining taxminiy natijasi shakllantirilishi ham yuqoridagi tizim oldinlab ketganidan darak beradi[6]. Bundan tashqari, O‘zbekistonda lex.uz va norma.uz kabi rasmiy qonunchilik ma’lumotlar bazalari mavjud bo‘lib, ular qonun matnlari, normativ hujjatlar va sud amaliyotlariga tezkor kirish imkonini beradi. E-sud tizimi esa elektron shaklda arizalar topshirish, ish holati va muddatlarni kuzatish imkonini yaratib, korrupsiya xavfini kamaytiradi hamda jarayonni shaffoflashtiradi. Notarial palataning elektron tizimlari hujjatlarni masofadan turib tasdiqlash, elektron reyestrlar bilan ishlash imkonini beradi. Shuningdek, O‘zbekiston Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-6079-son farmoni Legal Tech texnologiyalarini keng joriy etish uchun rasmiy huquqiy zamin yaratdi va bu sohada davlat darajasidagi irodaning mavjudligini ko‘rsatdi.

[5] https://www.tuzuk.ai/uz
[6] https://lex.uz/uz/docs/-7696567

Yuridik ta’lim muassasalari, xususan Toshkent davlat yuridik universiteti (TDYU) ham o‘quv dasturlarini zamonaviylashtirish yo‘lida muhim qadamlar tashlamoqda. Yangi 2026-2027-o‘quv yilidan kutilyotgan o‘zgarishlardan biri talabalarning nazorat imtihonlarini (asosan, yakuniy imtihonlar) tekshirishda inson omilini maksimal kamaytirib SIdan foydalanish joriy etilmoqda. Ushbu transformatsiyaning asosiy afzalliklaridan biri OTM professor-o‘qituvchilar uchun qo‘shimcha vaqt resursini shakllantiradi. Bundan tashqari, korrupsiyaviy holatlarning sodir bo‘lish ehtimolini ham kamaytiradi.

Huquqiy ta’lim nuqtai nazaridan bu o‘zgarishlar amaliyotchi yuristlar uchun bir necha muhim vazifa va imkoniyatlarni yatarmoqda. Birinchi va eng dolzarb masala — *“prompt engineering”*, ya’ni SI tizimlariga to‘g‘ri va samarali so‘rov yozish ko‘nikmasi. SI tizimlaridan noto‘g‘ri so‘rov tarzida foydalanish kutilgan natijani bermaydi; aksincha, aniq, maqsadli va kontekstli savol berish yangi davr huquqshunosining asosiy malakasiga aylanib bormoqda. Ikkinchi muhim ko‘nikma — tanqidiy fikrlash va SI natijalarini tekshirish. Tuzuk AI kabi mahalliy platformalar qanchalik ishonchli bo‘lmasin, huquqshunos yakuniy javobgarlikni doim o‘z zimmasida saqlab qolishi shart. Bu O‘zbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunda ham o‘z aksini topgan[7].

Xalqaro miqyosdagi tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, Legal Tech vositalari yuristning o‘rnini egallamaydi — u yuristning imkoniyatlarini kengaytiradi va unumdorlik darajasini oshirish imkonini beradi. AQShdagi katta firmalar allaqachon Harvey AI, Luminance va Co-Counsel (Thomson Reuters) kabi maxsus platformalarga o‘tib, bir soatda besh soatlik ish bajarib beruvchi tizimlardan foydalanmoqda. Buyuk Britaniyada Clifford Chance, Linklaters kabi yirik firmalar ichki SI laboratoriyalari ochgan. Yevropa tajribasidan olinadigan eng muhim saboqlardan biri shuki, texnologiya qonunchilikka moslanib rivojlanishi kerak. O‘zbekiston bu tajribadan ibrat olib, bir tomondan Tuzuk AI kabi mahalliy vositalarni rivojlantirsa, ikkinchi tomondan ularning ishonchliligi, ma’lumotlar maxfiyligi va huquqiy mas’uliyat masalalarini normativ tartibga solish bo‘yicha puxta yo‘l xaritasini tuzishi lozim.

Albatta, huquqiy texnologiyalar faqat imkoniyatlardan iborat emas — ular bilan birga bir qancha muammolar ham kelib chiqadi. Embroker tadqiqotiga ko‘ra, AQSh yuristlarining 41 foizi SI’ni qo‘llashda ma’lumotlar maxfiyligi va mijoz sirlari xavfsizligiga bog‘liq xavotirlarini bildirgan. Clio hisobotida 35 foiz yurist AI dan foydalanganda bu haqda mijozlarini xabardor qilmasligini e’tirof etgan, holbuki mijozlarning 78 foizi bundan xabardor bo‘lishni istaydi. Bu masalalar O‘zbekiston uchun ham dolzarb bo‘lib, mahalliy regulyatsion baza hali to‘liq shakllanmagan sharoitda ayniqsa diqqatga loyiqdir. Shu bois bugungi huquqiy ta’lim faqat SI’dan foydalanishni o‘rgatish bilan cheklanmay, balki uni mas’uliyatli, axloqiy va qonuniy doirada qo‘llash ko‘nikmalarini ham shakllantirishni o‘z zimmasiga olishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda huquqiy ta’limda texnologiyalardan foydalanish nafaqat istiqbolli, balki taqozo etilayotgan yo‘nalishdir. Mamlakat o‘ziga xos keskin muammo — advokatlarning yetishmasligi — bilan yuzma-yuz turib, ayni paytda Tuzuk AI va shunga o‘xshash platformalar orqali ushbu muammoga innovatsion yechim taklif etmoqda. O‘zbekiston esa bu yo‘lni ancha qisqaroq vaqtda bosib o‘tish imkoniga ega — chunki xalqaro tajriba, tayyor mahalliy platforma va “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ko‘rinishidagi davlat irodasi allaqachon mavjud. Endi bu imkoniyatni yuridik ta’lim muassasalari, amaliyotchi yuristlar, startap-jamoa va regulyatorlar birgalikda qo‘llashlari lozim. Texnologiyadan foydalanmaydigan yurist emas, balki texnologiyani o‘zinikidek boshqaradigan yurist — ertangi O‘zbekiston huquq tizimining asosi bo‘ladi.

[7] https://lex.uz/docs/-83472